

ONA TILINING JAMIYATDAGI O'RNI

To'lanboyeva Fotima Akmaljon qizi
O'zDJTU, Sharq filologiyasi 3-bosqich talabasi
E-mail: fatimatulanbaeva@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada ona tilining jamiyatdagi ko'p funksiyali ro'li, uning madaniy, tarbiyaviy, ijtimoiy va lisoniy ahamiyati lingvokulturologik va sotsiologik jihatdan tahlil qilinadi. Ona tili har bir millatning madaniy me'rosining muhim qismini tashkil qiluvchi, avloddan avlodga o'tib kelayotgan urf-odatlar va dunyoqarashni uzatuvchi bosh vosita hisoblanadi.

Kalit so'zlar: ona tili, jamiyat, lingvokulturologiya, multikulturologik va sotsiologik madaniy meros, tarbiya, til saqlanishi.

Аннотация. В данной статье анализируется многофункциональная роль родного языка в обществе, его культурное, воспитательное, социальное и лингвистическое значение с лингвокультурологической и социологической точек зрения. Родной язык является важной частью культурного наследия каждого народа, основным средством передачи традиций, обычаев и мировоззрения, переходящих из поколения в поколение.

Ключевые слова: родной язык, общество, лингвокультурология, лингвокультурологический и социологический подход, культурное наследие, воспитание, сохранение языка.

Annotation. This article analyzes the multifunctional role of the mother tongue in society, as well as its cultural, educational, social, and linguistic significance from linguocultural and sociological perspectives. The mother tongue is an essential part of every nation's cultural heritage and serves as the main means of transmitting traditions, customs, and worldview from one generation to another.

Keywords: Mother tongue, society, linguoculturology, linguocultural and sociological approach, cultural heritage, education, language preservation.

Kirish. Har bir insonning hayotida birinchi til–ona tilidir. U insonning dunyoni anglashishi, atrof-muhit bilan munosabat o'rnatishi, fikr va tuyg'ularini ifodalashishi uchun eng birinchi vosita. Lekin ona tili faqat yagona insonning tiliyotiy rivojlanishi uchun emas, balki butun millatning madaniy merosini saqlab qolish va uzatish uchun ajralmas omil. Ona til – xalqning tarixiy, madaniy va axloqiy tajribasini jamlagan, uning o'ziga xos dunyoqarashini va qadriyatlarini aks ettiruvchi lisoniy-madaniy birlik. Jamiyat rivojlanishi bilan tilning o'rni ham o'zgaradi, lekin ona tilining jamiyatdagi qiymati hech qachon yo'qolmaydi. Ona til – oila tarbiyasining bosh vositasi, jamiyatning axloqiy, ma'naviy poydevorini tashkil qilishda va xalqlararo munosabatlarni o'rnatishda ham muhim rol o'ynaydi.

Asosiy qism. Maqolada ona tilining jamiyatdagi ro'li tahlil qilinadi: uning tarbiyaviy, madaniy, ijtimoiy va lingvistik vazifalari ko'rib chiqiladi, o'zbek madaniyatida ona tilining ahamiyati aniqlanadi va bugungi kunda ona tilining saqlanishi va rivojlanishi uchun zarur choralar ko'rilgan. Tadqiqotda o'zbek folklori, lingvistik asarlar va jamiyat lingvistika oid tadqiqot materiallaridan foydalanilgan.

1. Ona tilining shakllanishi va lingvistik xususiyatlari. Ona tilining shakllanishi va ahamiyati : Ona til – bu inson hayotida dastlabki bosqichida oila muhitida o'rganadigan til, uning shakllanishi oilaning madaniy, tarixiy va lingvistik xususiyatlari bilan uzviy

bog'liqdir. Ona tilining o'rganilishi insonning miyasi rivojlanishida juda ahamiyatli, ayniqsa, 0-7 yosh orasida til o'rganish jarayoni samarali kechadi. Bu vaqtda bola atrof-muhitdagi so'zlar va nutq shakllarini o'zlashtiradi. U orqali insonga oilaning qadriyatlarini, urf-odatlarini ulashadi va madaniy jihatdan o'ziga xosligini shakllantiradi.

Ona tilining lingvistik xususiyatlari. Ona tilning leksikasi, grammatikasi va uslubi xalqning madaniy va tarixiy tajribasini aks ettiradi. Ona tilining lug'at boyligida xalqning hayot tarzi, urf-odatlari bilan bog'liq so'zlar mavjud. Oila muhitida ona tilida hikoyalar, qo'shiqlar bolaga yetkaziladi. Bu bolalarning til boyligini oshirishiga va ma'naviy kamolotiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

2. Ona tilining jamiyatdagi multifunksional roli. Tarbiyaviy funksiya – oila va jamiyat tarbiyasining asosiy vositasi: Bolalar avvalo oila muhitida ona tilini eshitadi, yaxshi va yomonni farqlaydi. Ular ona tili orqali axloqiy qadriyatlarni, urf-odatlarni o'rganadi. Ota-onalar farzandlariga ona tilida hikoyalar, qo'shiqlar aytadi va nasihatlar qiladi. Shu orqali ularni ezgulik, sadoqat va mehr-muhabbat, qadriyatlarga o'rgatadi. Bolalar maktabgacha ham ona tilida tushunish va gapirishni o'rganishga ulgurishadi va bu boshqa fanlarni o'zlashtiriga katta yordam beradi.

Madaniy funksiya – xalqning madaniy merosini saqlab qolish va uzatish: Til orqali xalqning tarixi, adabiyoti va san'ati avloddan avlodga o'tadi. Masalan, o'zbek tilidagi asarlari, ertaklari o'zbek xalqining madaniyatini mujassamlagan va bu merosni to'liq o'rganish va uzatish faqat ona tili orqali amalga oshiriladi. Agar bir millatning ona tili yo'qolsa, uning madaniy merosi ham unutila boshlaydi.

3. O'zbek madaniyatida ona tilining maxsus ahamiyati. O'zbek xalqining qadimgi mentalitetida ona tili eng qadrlil narsa hisoblanadi. O'zbek folklorida «Ona tili – insonning joni», «Ona tilini unutgan inson – o'z xalqini unutgan» kabi afsona va sharh xalqning ona tiliga hurmatini bildiradi. Qadimiy o'zbek oilalarida bolalar avval o'zbek tilini o'rganadi, ota-onalar ularga tilni qadrlashga va rivojlantirishga o'rgatishadi. O'zbek folklorida ona tilining tasvirlanishi: O'zbek ertak, qo'shiq va afsonalarida ona tilining ahamiyati ko'p ta'kidlanadi. Masalan, «Alpomish» eposida qahramonlar o'zbek tilida muloqot qiladi, ularning nutqida ozodlik va oilaviy birdamlik qadriyatlari ifodalanadi. Xalq qo'shiqlarida «Ona tili – mening dunyom», «O'zbek tilim – mening hayotim» kabi matnlar ona tilga bo'lgan sevgi va hurmatini ko'rsatadi.

O'zbekiston jamiyatida ona tilining hozirgi holati. O'zbekiston mustaqillikdan so'ng o'zbek tilining rivojlanishi va saqlanishi uchun ko'plab choralar ko'rilgan. O'zbek tili O'zbekistonning davlat tili bo'lib, u barcha o'quv yurtlari, ish joylari va boshqa hududlarda asosiy til sifatida ishlatiladi. Hukumat o'zbek tili leksikasini rivojlantirish, grammatikasini takomillashtirish uchun ko'p loyihalar qilgan. Lekin hozirda O'zbekiston jamiyatida ona tilning saqlab qolinilishi bilan bog'liq muammolar mavjud. Masalan, shahar muhitida yoshlar o'rtasida ayniqsa ingliz va rus tilining ta'siri sezilarli darajada ortmoqda. Ba'zi oilalarda bolalar avval boshqa tillarni o'rganishmoqda. Bu o'zbek tilining kelajagi uchun xavf tug'diradi va bu muammoni yechimlarini topish zarur.

Xulosa. Mazkur maqolada ona tilining jamiyatdagi o'zni turli jihatlardan tahlil qilinadi va tahlillarda, ona tili jamiyatning ajralmas, ko'p funksiyali lingvokulologik birligi deyiladi. O'zbek madaniyatida ona til xalqning madaniy merosi, qadriyatlari va milliy o'zligini aks ettiruvchi muhim ramzidir. O'zbek xalqining mentalitetida ona tilga bo'lgan chuqur hurmat mavjud, bu an'ana qadimdan hozirgacha ham saqlanib qolgan.

O'zbekiston mustaqillikdan so'ng o'zbek tilining rivojlanishi va saqlanishi uchun ko'plab choralar amalga oshirdi. Shunga qaramay, hozirda ham til bilan bog'liq ayrim muammolar mavjud. Oilada to'g'ri tarbiya berish, maktab va oliy o'quv yurtlarida sifatli ta'limni joriy qilish, jamiyatda til madaniyatini yuksaltirish va davlat hukumati tomonidan muhim shar-sharoitlarni yaratish kabi choralar yo'lga qo'yilishi muhim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Rasulov, A. O'zbek folklorining poetikasi. Toshkent: Fan, 1992.
2. Mirzayev, T. O'zbek xalq og'zaki ijodi. Toshkent: O'qituvchi, 1990.
3. Rahimov, B. Folklor va qadriyat. Toshkent: Universitet, 2015.
4. Xudoyberdiyeva, N. O'zbek ertaklarining aksiologik tahlili. Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2018.
5. Karimov, I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
6. Saidov, M. O'zbek xalq ertaklarida tarbiyaviy g'oyalar. Toshkent: Fan, 2005.
7. Rahmatullayeva, T. O'zbek xalq og'zaki ijodida ayol obrazi. Toshkent: Yangi Asr avlodi, 2010.
8. Propp, V. Morphology of the Folktale. Texas University Press, 1968.
9. Thompson, S. Motif-Index of Folk Literature. Indiana University Press, 2004.
10. O'zbek xalq ertaklari. I-jild. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2008.
11. Abdurahmonov, A. O'zbek tilining lingvistik xususiyatlari. Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2020.
12. Nurullayev, B. Jamiyatda tilning roli va ahamiyati. Toshkent: Universitet, 2019.